

IJTIMOY BIRDAMLIKNING TARIXIY O'ZGARISHI: IBN XALDUN QARASHLARIDA ASABIYYANING SHAKLLANISHI VA YEMIRILISHI

Ochilov Baxtiyor Shuhrat o'g'li

Navoiy inovatsiyalar univeristeti “

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası” o'qituvchisi

+99893 305 62 27

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ibn Xaldunning “asabiyya” nazariyasining evolyutsion jarayoni, uning badaviyadan hadoriyaga o'tish bosqichidagi funksional o'zgarishlari ilmiy-falsafiy tahlil qilinadi. Asabiyyaning kuchayishi va yemirilishi tabiiy-geografik omillar, nasab aralashuvi hamda siyosiy hokimiyatning ongli harakatlari bilan bog'liqligi asoslab beriladi. Shuningdek, sivilizatsiya taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy birdamlikning tabiiy susayishi Ibn Xaldun konsepsiyasining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Asabiyya, umron, badaviya, hadoriya, ijtimoiy birdamlik.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СОЛИДАРНОСТИ: ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗЛОЖЕНИЕ АСАБИЙИ В ВЗГЛЯДАХ ИБН ХАЛДУНА

Аннотация: В данной статье представлен философско-социологический анализ эволюции концепции «асабийя» Ибн Халдуна, а также изменения её структуры в процессе перехода общества от бедуинского (бадавия) к городскому (хадария) укладу. Показано, что факторы среды, смешение родов и целенаправленная политика власти являются ключевыми причинами ослабления социальной солидарности. Осмысливается, как развитие цивилизации приводит к естественному угасанию асабийи.

Ключевые слова: Асабийя, умран, бедуинская среда, городская цивилизация, социальная солидарность.

THE HISTORICAL TRANSFORMATION OF SOCIAL SOLIDARITY: THE FORMATION AND DECLINE OF ASABIYYA IN IBN KHALDUN'S THOUGHT

Abstract: This article offers a socio-philosophical analysis of Ibn Khaldun's concept of *asabiyya*, focusing on its evolution during the transition from a nomadic (badawiya) society to a sedentary (hadariya) civilization. The study argues that environmental conditions, lineage mixing, and deliberate political actions contribute to the weakening of group solidarity. It also discusses how the progress of civilization results in the natural decline of *asabiyya* as an inner dynamic of social development.

Keywords: Asabiyya, civilization, nomadic society, urban culture, social cohesion.

Ijtimoiy birdamlikning tarixiy rivojlanish jarayonini o'rganish, eng avvalo, jamiyatning ichki tuzilishi, ijtimoiy aloqalar tizimi va hokimiyat–madaniyat munosabatlari qanday shakllanganini tahlil qilishni taqozo etadi. Mazkur jarayonni o'rganish nafaqat tarixshunoslik, balki ijtimoiy falsafa, siyosatshunoslik va sotsiologiya uchun ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki ijtimoiy birdamlikning mazmuni har bir davrda o'ziga xos shakllanadi: ba'zan u diniy mafkuraga, ba'zan qabila tuzilmalariga, ba'zan iqtisodiy manfaatlar birligiga, ba'zan esa siyosiy institutlarning mustahkamligiga tayanadi. Bu jarayonlarning o'zaro bog'liqligini izohlash uchun esa universal nazariy yondashuv talab etiladi.

Ibn Xaldunning asabiyya haqidagi ta'limoti ana shu jarayonni izchil tushuntirib bera olgan eng mukammal nazariyalardan biri sifatida ajralib turadi. U asabiyyani jamiyatning tabiiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilib, uni sivilizatsiyaning paydo bo'lishi, yuksalishi va inqirozini tushuntiruvchi universal mezon darajasiga ko'tardi (1). Bu yerda “universal mezon” iborasi shuni anglatadiki, asabiyya jamiyat tuzilishining barcha bosqichlarida — boshlang'ich qabila uyushmalaridan tortib, markazlashgan davlatlar, yirik sivilizatsiyalar va imperiyalar tizimigacha bo'lgan jarayonlarda — muhim tushuntiruvchi kategoriya sifatida amal qiladi.

Asabiyya, bir qarashda, faqatgina urug'–qabila birdamligi yoki jamoaning birlashuv kuchi bo'lib ko'rinishi mumkin. Ammo Ibn Xaldun nuqtai nazarida bu tushuncha ancha kengroq — u jamiyatning ichki energiyasi, ijtimoiy tizimning harakat dinamikasi va siyosiy tuzumning barqarorlik darajasini belgilovchi asosiy omildir (2). Tadqiqotlarimizdan ko'rinadiki, asabiyya shunchaki birlashuv hissi emas, balki:

- ijtimoiy guruhning o'z manfaatlari yo'lida faol harakat qilish qobiliyati;
- xavf-xatar va tashqi bosimlar ostida ham birdamlikni saqlash qudrati;
- hokimiyatga intilish va uni qo'llab-quvvatlashning ruhiy-ijtimoiy manbai;
- jamiyatning o'zini o'zi tashkil etish mexanizmi;

sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqotlardan ko'rinadiki, asabiyya — bu jamiyatning “energiya manbai”, uning ichidagi ijtimoiy kuchlarning uyg'unlashuvi va harakatga kelishidan iborat murakkab jarayon sifatida izohlanadi. Shu bois tarixiy jarayonlarni izohlashda asabiyya o'ziga xos metodologik vosita sifatida maydonga chiqadi. Bu yondashuv, o'z navbatida, ijtimoiy birdamlikning qanday shakllanishi, qanday kuchlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va qanday omillar ta'sirida yemirilishini tahlil qilish imkonini beradi.

Ibn Xaldun qarashlariga ko'ra, jamiyatning tabiiy shakllanish bosqichida asabiyya yuksak darajada bo'ladi. Qabila hayotining soddaligi, tashqi xavflarga qarshi kurash zarurati va jamoa a'zolarining manfaatlari birligi ularning birdamligini

mustahkamlaydi. Ana shu kuch jamiyatni tashkil etadi, uni bir maqsad sari yetaklaydi va hatto siyosiy hokimiyatni shakllantirishga xizmat qiladi(3). Ya'ni, asabiyya faqat ijtimoiy birdamlik emas, balki hokimiyatning tabiiy asosidir. Biroq jamiyat taraqqiy etib, sivilizatsiya bosqichiga ko'tarila borgani sari bu birlik tabiiy ravishda susaya boshlaydi

Sivilizatsiya rivoji bilan bog'liq ravishda iqtisodiy farovonlikning oshishi, moddiy qulayliklarning ko'payishi va ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashuvi birdamlikning dastlabki kuchini yemirib boradi. Ibn Xaldun bu jarayonni jamiyat hayotining tabiiy qonuniyati sifatida izohlaydi: "Asabiyya o'z kuchining cho'qqisiga yetgach, asta-sekin susayish davri boshlanadi, chunki qulaylik ortib borishi bilan insonlar kurashuvchanlik va birdamlik xususiyatini yo'qotadi," — deya ta'kidlaydi u (4). Shu ma'noda, asabiyya nafaqat jamiyatni bunyod etadi, balki uning yemirilish mexanizmini ham o'zida mujassam etadi. Bu dialektik yondashuv Ibn Xaldun konsepsiyasining eng original tomonlaridan biridir.

Bu jarayonning ichki mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asabiyaning yemirilishi uch bosqichda namoyon bo'lishi mumkin. Birinchi bosqichda hokimiyat mustahkamlanadi va markazlashadi, biroq birdamlik asosidagi tabiiy kuch siyosiy mexanizmlar bilan almashadi. Ikkinchi bosqichda ijtimoiy tabaqalanish, iqtisodiy tengsizlik va hokimiyatning byurokratiklashuvi kuchayadi. Uchinchi bosqichda esa jamoaviy birdamlik butunlay zaiflashib, tashqi kuchlar yoki ichki parokandalik natijasida siyosiy tuzum inqirozga yuz tutadi. Bu jarayonni sivilizatsiyalar tarixida ko'p marotaba kuzatish mumkin — xoh u Abbosiylar davlati bo'lsin, xoh Umaviylar, xoh Rim imperiyasi (5).

Ibn Xaldunning metodologiyasi shu bilan ahamiyatliki, u tarixiy jarayonlarni tasodifiy omillar asosida emas, balki ijtimoiy-individual xatti-harakatlarning umumiy qonuniyatlari orqali izohlaydi. Uning fikricha, biror jamiyatning tanazzuli alohida shaxslarning xatosi yoki biror tasodifiy sabab natijasi emas — bu jamiyatning ichki birdamlik kuchining yemirilishi bilan bog'liq tabiiy oqibatdir(6). Demak, har bir tarixiy voqeani anglash uchun avvalo uning ijtimoiy asosini, birdamlik darajasini, iqtisodiy sharoitini va madaniy muhitini hisobga olish zarur sanalgan. Bu yondashuvni bugungi kunda sotsiologiyada qo'llaniladigan strukturaviy-funksional tahlil bilan hamohang, deb ayta olishimiz mumkin.

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotchilar ham asabiyya tushunchasining hozirgi global jarayonlarga qanchalik mos tushishini qayta baholamoqdalar. Ba'zi olimlar uni milliy birdamlik, fuqarolik sadoqati yoki madaniy uzviylik tushunchalari bilan qiyoslaydi; boshqalarga ko'ra esa asabiyya — bu har qanday ijtimoiy tizimni birlashtiruvchi kollektiv energiyaning tarixiy ko'rinishidir (7). Shu ma'noda, Ibn Xaldun konsepsiyasi bugungi siyosiy integratsiya jarayonlari, jamiyatlararo raqobat, davlat barqarorligi va ijtimoiy ong evolyutsiyasini tushunishda ham dolzarbligini

yo'qotgani yo'q. Shu o'rinda aytish joyizki, tadqiqotlarimizda Ibn Xaldunning asabiyya haqidagi nazariyasi jamiyat hayoti, siyosiy hokimiyat va tarixiy o'zgarishlarning ichki mexanizmlarini tushuntirib berishga qaratilgan juda yuksak ilmiy konsepsiya ekanligini izohlaydi. U ijtimoiy birdamlikni dinamik tushuncha sifatida talqin qilib, uning shakllanishi, yuksalishi va yemirilishini tarixiy jarayonning o'zagi sifatida ko'rsatadi. Shunday qilib, asabiyya konsepsiyasi nafaqat Sharq falsafiy an'anasi uchun, balki umumjahon tarix falsafasi va sivilizatsiya nazariyalari uchun ham muhim metodologik asos bo'lib qolmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Ибн Халдун. Муқаддима.** Байрут: Дар ал-Кутуб ал-Илмийя, 2005. Б. 45–67.
2. **Фомина Д. В. Власть и государство в философии Ибн Хальдуна.** Москва, 2003. Стр. 16–29.
3. **Baali, F. *Society, State, and Urbanism: Ibn Khaldun's Sociological Thought.*** SUNY Press, 1988. p. 54–71.
4. **Rosenthal, F. *Ibn Khaldun: The Muqaddimah — An Introduction to History.*** Princeton University Press, 1967. p. 89–112.
5. **Масудов А. Ибн Халдуннинг ижтимоий фалсафаси.** Тошкент: Академнашр, 2019. Б. 130–158.
6. **Gellner, E. *Muslim Society.*** Cambridge University Press, 1981. p. 43–56.
7. **Arnold, T. *The Preaching of Islam.*** London: Constable, 1913. p. 92–110.